



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-15-120-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Tuman hokimining o‘rinbosari M.Rasulovning “Kuz-qishga tayyorgarlik holati (isitish tizimi), ko‘p qavatli uy-joylarni kanalizatsiyasi tizimga ulanishi hamda ijtimoiy soha obyektlari (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar va tibbiyot muassasalari)da amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti haqida

Tuman hokimining o‘rinbosari M.Rasulovning “Kuz-qishga tayyorgarlik holati (isitish tizimi), ko‘p qavatli uy-joylarni kanalizatsiyasi tizimga ulanishi hamda ijtimoiy soha obyektlari (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar va tibbiyot muassasalari)da amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti muhokama etib hamda xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi Xalq demokratik partiyasi deputatlik guruhi tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining o‘rinbosari M.Rasulovning “Kuz-qishga tayyorgarlik holati (isitish tizimi), ko‘p qavatli uy-joylarni kanalizatsiyasi tizimga ulanishi hamda ijtimoiy soha obyektlari (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar va tibbiyot muassasalari)da amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (M.Zavqiyev, M.Rasulov, O.Shirinov), tuman elektr tarmoqlari korxonasi” (J.Alimov), “Samarqandtumangaz” gaz ta’minoti bo‘limi (L.Nazarov), “Samarqand suv ta’minoti” AJ Kattaqo‘rg‘on tumani filiali (F.Pirmatov), tumani qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (G‘.Yakubov), tumani hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Normurodov)lar sohaga aloqador tashkilotlar bilan birgalikda:

- ko'p qavatli uylarni kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha tunkun faoliyat olib boruvchi "Kuz-qish shtabi" faoliyatini tashkil etish;

- kuz-qish mavsumi davrida kommunal soha ta'minotida sodir etilishi mumkin bo'lgan nosozliklarni (avariyalarni) tezkor bartaraf etish maqsadida lozim uskuna, ehtiyot qismlar va texnikalar shayligini ta'minlash;

- ko'p qavatli uy-joylarga tutash hududlarning sanitariya holati, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish, maishiy chiqindilarning o'z vaqtida olib ketilishini nazoratga olish;

- Tumanda joylashgan ko'p qavatli uy-joylarning markaziy kanalizatsiya tizimiga ulashni jadallashtirish va aholi turmush sharoitlarini yaxshilash choralari ko'rish;

- kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini o'z vaqtida va sifatli olib borish;

- tumanda iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy soha obyektlarini, ayniqsa ko'p qavatli uy-joylarni 2025-2026-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha parametrlar va chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

- kuz-qish mavsumida korxonalar tomonidan tashkil etiladigan brigadalarni to'liq shayligini ta'minlash maqsadida barcha choralarni ko'rish;

- tuman hududlaridagi elektr havo uzatish tarmoqlari va transformator punktlarida mukammal ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

- ko'p qavatli uylarni va ijtimoiy soha obyektlarini hamda ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz ta'minoti tizimlarini mavsumga tayyorlash, oziq-ovqat ta'minoti zaxiralarini yaratish kabi muhim masalalarni o'rganish va aniqlangan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari M.Rasulovga aloqador tashkilotlar bilan birgalikda:

- o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va ularda qurilgan obyektlarni xatlovdan o'tkazishning 2025-yil uchun rejasini to'liq va sifatli yakunlash;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari holatini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish, olib borilayotgan qurilish ishlarini sifatini va qurilish me'yorlariga rioya qilinayotganligini qat'iy nazorat qilish;

- ko'p qavatli uylarni ta'mirlash bo'yicha dasturdagi rejani bajarish ishlari yakunlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev), ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosarlari (M.Zavqiyev, M.Rasulov, O.Shirinov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH